NAVOIY VILOYATI HUDUDLARIDA DAROMAD VA ALMASHTIRISH SAMARALARINING IQTISODIY TAHLILI

Abduhalimova Dilbar Zokir qizi
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti
1M-26 IQ guruh magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24014392

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyati tuman va shaharlarida aholi daromadlarining shakllanishi, hududlar kesimida taqsimlanishi hamda daromad va almashtirish samaralarining iqtisodiy mazmuni va namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aholi daromadlari darajasiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar, jumladan, bandlik, ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish hajmi va iste’mol xarajatlarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Daromad samarasi va almashtirish samarasi orqali iste’molchilarning tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabidagi o‘zgarishlar, narxlar o‘zgarishining xarid qobiliyati hamda iste’mol tarkibiga ta’siri iqtisodiy jihatdan o‘rganiladi. Maqolada Navoiy viloyatining tuman va shaharlari misolida hududiy iqtisodiy tafovutlarni aniqlash, aholi farovonligini oshirish va iste’mol imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.
Kalit so‘zlar: daromad samarasi, almashtirish samarasi, iste’molchi tanlovi, real daromad, nominal daromad, iste’mol narxlari, xarid qobiliyati, chakana savdo, hududiy tafovut, Navoiy viloyati.

Abstract: This article analyzes the formation and regional distribution of household income across the districts and cities of the Navoi region, as well as the economic essence and manifestations of the income and substitution effects. It further examines the key economic factors influencing income levels—such as employment, wages, entrepreneurial activity, production volume, and consumer spending—and their interrelationships. The study explores, from an economic perspective, how the income and substitution effects drive changes in consumer demand for goods and services, and how price fluctuations impact purchasing power and the composition of consumption. Based on the example of the districts and cities in the Navoi region, the article develops scientific and practical proposals and recommendations aimed at identifying regional economic disparities, enhancing public well-being, and expanding consumption opportunities.
Keywords: income effect, substitution effect, consumer choice, real income, nominal income, consumer prices, purchasing power, retail trade, regional disparity, Navoi region.

Аннотация: В статье анализируются процессы формирования и регионального распределения доходов домохозяйств в разрезе районов и городов Навоийской области, а также рассматриваются экономическая сущность и проявления эффектов дохода и замещения. Кроме того, исследуются ключевые экономические факторы, влияющие на уровень доходов — такие как занятость, заработная плата, предпринимательская

активность, объемы производства и потребительские расходы, — а также взаимосвязи между ними. С экономической точки зрения в работе изучается, как эффекты дохода и замещения определяют изменения в потребительском спросе на товары и услуги, и каким образом колебания цен воздействуют на покупательную способность и структуру потребления. На примере районов и городов Навоийской области в статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на выявление региональных экономических диспропорций, повышение благосостояния населения и расширение возможностей для потребления.

Ключевые слова: эффект дохода, эффект замещения, потребительский выбор, реальный доход, номинальный доход, потребительские цены, покупательная способность, розничная торговля, региональные диспропорции, Навоийская область.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni baholashda aholi daromadlari va iste’mol xatti-harakatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Daromadning o‘sishi iste’molchi imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, narxlarning nisbiy o‘zgarishi esa xarid tarkibini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. Shu sababli daromad samarasi va almashtirish samarasi tushunchalari nafaqat nazariy mikroiqtisodiyot, balki hududiy iste’mol bozorlarini tahlil qilish uchun ham ahamiyatlidir. Navoiy viloyati iqtisodiyotida sanoat, konchilik, xizmatlar, savdo va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari turli hududlarda turlicha rivojlangan. Viloyat markazi, Zarafshon va Uchquduq kabi sanoatlashgan hududlar bilan qishloq xo‘jaligi va xizmatlar ulushi yuqoriroq bo‘lgan tumanlar o‘rtasida daromad manbalari, bozor infratuzilmasi va iste’mol imkoniyatlari farqlanishi mumkin. Mazkur holat iste’molchilarning narx va daromad o‘zgarishlariga munosabatini hududiy kesimda o‘rganishni talab etadi. Iste’molchi tanlovi nazariyasida daromad samarasi va almashtirish samarasi tovar narxining o‘zgarishi natijasida iste’molchi tanlovida yuz beradigan o‘zgarishlarni tushuntiradi. Almashtirish samarasi - boshqa shartlar o‘zgarmagan holda bir tovarning nisbiy narxi pasayganda iste’molchining nisbatan arzonlashgan tovarni ko‘proq, qimmatlashgan tovarni esa kamroq xarid qilishga moyilligidir. Daromad samarasi esa narx o‘zgarishi natijasida iste’molchining real xarid imkoniyati o‘zgarishi bilan bog‘liq. Masalan, go‘sht narxi boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan oshsa, ayrim iste’molchilar baliq, parranda go‘shti yoki dukkakli mahsulotlar ulushini ko‘paytirishi mumkin. Bu - almashtirish samarasiga misol. Narx oshishi natijasida avvalgi iste’mol savatini xarid qilish uchun ko‘proq mablag‘ talab etilsa, iste’molchining real xarid qobiliyati pasayadi; u umumiy iste’mol hajmini qisqartirishi mumkin. Bu esa daromad samarasi bilan izohlanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-iyun holatiga ko‘ra, Navoiy viloyati aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar 79,1 %, transfertlardan olingan daromadlar 13,9 % hamda shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan va mol-mulkdan olingan daromadlar 7,0 %ni tashkil etadi. 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra (12 oy davomida), Navoiy viloyati aholi jon boshiga umumiy daromadlari 27,4 mln. so‘mni tashkil etdi. Navoiy viloyatida aholi jon boshiga nominal umumiy daromad 2021-yilda 26 452,4 ming so‘mni, 2025-yilda esa 44 694,2 ming so‘mni tashkil etgan. Demak, bu davrda nominal ko‘rsatkich qariyb 1,69 baravar oshgan. Biroq nominal o‘sishning o‘zi xarid qobiliyati aynan shu darajada oshganini anglatmaydi, chunki shu davrda iste’mol narxlari ham o‘zgargan. Navoiy viloyatida real daromadlar 2021-yildagi 24 010,5 ming so‘mdan 2025-yilda 41 238,4 ming so‘mga yetgan. Bu

qariyb 71,7 foizlik o‘sishni anglatadi. 2025-yilda viloyatning aholi jon boshiga nominal daromadi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan: 44 694,2 ming so‘mga qarshi 29 935,5 ming so‘m. Real daromadlarda ham Navoiy ko‘rsatkichi respublika o‘rtachasidan yuqori. Biroq viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichi tumanlar o‘rtasidagi tafovutlarni yashirishi mumkin. Sanoat korxonalari va yuqori ish haqi to‘lanadigan tarmoqlar joylashgan hududlarda daromadlar yuqoriroq bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, aholi tarkibi, bandlik shakllari, tadbirkorlik daromadlari va narxlar darajasi ham yakuniy ko‘rsatkichga ta’sir qiladi. Shuning uchun viloyat bo‘yicha o‘rtacha natijani har bir tuman aholisi bir xil daromad oladi, deb talqin qilish mumkin emas.

Navoiy viloyatida real daromadlarning o‘sishi aholining tovar va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Daromad samarasi orqali iste’molchi ayrim normal tovarlar - sifatli oziq-ovqat, kiyim-kechak, maishiy texnika, ta’lim va dam olish xizmatlariga xarajatlarini oshirishi mumkin. Biroq bu jarayon barcha hududlarda bir xil kechmaydi: daromad manbalari, bandlik, transport xarajatlari va savdo infratuzilmasi farqlanadi. Almashtirish samarasi esa narxlar nisbati o‘zgarganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, ma’lum oziq-ovqat mahsulotining narxi boshqa muqobil mahsulotlarga nisbatan tezroq oshsa, iste’molchi arzonroq tovarlarga o‘tishi mumkin. Bunda hududlarda mahsulot taklifi, bozorgacha masofa va logistika xarajatlari muhim. Chekka(cho‘l hududlar Zarafshon shahri, Uchquduq shaharchasi; Konimex, Tomdi tumani misol bo‘la oladi) hududlarda muqobil mahsulotlar tanlovi cheklangan bo‘lsa, almashtirish imkoniyati ham past bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, Navoiy viloyatida aholi farovonligini chuqur baholash uchun daromadlar dinamikasini iste’mol narxlari, uy xo‘jaliklari xarajatlari va tovarlar tarkibi bilan birgalikda tahlil qilish zarur. Kelgusida tuman va shaharlar bo‘yicha batafsil mikro-ma’lumotlardan foydalanish daromad va almashtirish samaralarini miqdoriy ajratish, hududiy iste’mol siyosatini takomillashtirish hamda aholi xarid qobiliyatini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 448 b
2. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
3. Saidkarimova M.I., Yakubova M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021. – 278 b.
4. Gaibnazarova Z.T., Isamuxamedova Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 528 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi
7. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi.